

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Rektor Sh. Sirojiddinov

2018 yil "25" 08



O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar
Ta'lim sohasi: 120000 - Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 5120100 - Filologiya va tillarni
o'qitish (o'zbek filologiyasi)

Toshkent-2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 25.08 dagi 744 - sonli buyrug'ining 6 - ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvoqlashtiruvchi Kengashning 2018 yil 28.08 dagi 4 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

R.Niyozmetova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasida professori, pedagogika fanlari doktori

T.Yusupova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Taqrizchilar:


T.Matyoqubova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat Universiteti O'zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedrasida dotsenti, f.f.n.

N.Jiyanova

O'zDTU O'zbek tili kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil 05.04 dagi 13-sonli bayonnomasi).



I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Bugungi kunda ona tili va adabiyot ta'limi oldiga o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'z g'alar fikrini anglaydigan muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yilgan. Mazkur maqsadni amalga o'shish, o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyasini DTS darajasida shakllantirishda Til va adabiyot ta'limida integratsiya fanining alohida o'rni bor. "O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi" fani talabalarga zamon talablariga mos ravishda o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlari to'g'risida bilim berish, bo'lg'usi fan o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga doir dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularga qo'yiladigan kasbiy talablar asosida mazkur fanni zamon talablari darajasida o'qitishning samarali metodlari, shakl va usullari haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirishini ta'minlash, xullas, respublika ta'lim sohasi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda. Ona tili va adabiyotni o'qitish metodikasi fani bo'yicha talabalarga ta'lim bosqichlarida olib boriladigan ilmiy-metodik hamda pedagogik ishlarning turlari, dars turlari, badiiy asarni tahlil qilishga oid metodik yondashuvlar, yetakchi tamoyillar, shuningdek, bo'lg'usi ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish, milliy adabiy ta'lim tizimida amalga oshirilgan eng so'nggi yutuqlar samarasi o'laroq o'qitish tizimining jahon ta'limi jarayonlari bilan hamqadam borayotganligini ko'rsatish, til va adabiyot o'qitishning turli zamonaviy metod va usullaridan foydalanish tizimi tavsiya etiladi.

"O'zbek tili va adabiyot o'qitish metodikasi" fani o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash, tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishidagi ilmiy-metodik tadqiqotlarni rivojlantirish, ta'lim tizimida ona tili va adabiyotni o'qitishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

"O'zbek tili va adabiyot o'qitish metodikasi" fanini o'qitishdan maqsad talabalarga o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlarini ta'limning turli bosqichlarida qo'llay olishni o'rgatish, bo'lajak o'qituvchilarning o'qitish faoliyatiga doir dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish; o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan kasbiy talablar asosida ona tili va adabiyot fanini zamon talablari darajasida o'qitishning samarali metodlari, shakl va usullari haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirishini ta'minlash hamda ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik-metodik imkoniyatlarini ko'rsatishdan iborat.

Fanning vazifalari:

talabalarni ona tili va adabiyotni o'qitish metodikasi fanining ilg'or yutuqlaridan xabardor qilish;

talabalarga "Ona tili" va "Adabiyot" o'quv dasturi hamda darsliklarining tuzilishi va mazmuni haqida ma'lumot berish;

mustaqillik yillarida umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qitiladigan ona tili va adabiy ta'limning mazmun-mohiyatini hamda o'qitish usullarini yangilash bilan bog'liq masalalar yuzasidan talabalarni xabardor qilish;

talabalarni ona tili va adabiy ta'limni o'quvchining mustaqil ijodiy fikrlash, fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratish mumkin bo'lgan imkoniyatlari bilan tanishtirish;

o'quvchini dars jarayonining subyektiga aylantiradigan eng qulay va samarali yo'llaridan foydalanishga o'rgatish

talabalarni ona tili va adabiyotdan o'quvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi bilan tanishtirish, egallangan BKMlarning natijasini baholash yo'llarini o'rgatish, sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini singdirish;

adabiy asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarning badiiy – estetik didi, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyatini, shuningdek, ularda kasbiy-pedagogik hamda metodik ko'nikma va malakalarni shakllantirish, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, o'qituvchilik kasbiy madaniyatini kamol toptirishga o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar:

"Ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi" fanining obyeksi va predmeti:

o'zbek tili va adabiyot fanlarining ta'lim tizimida tutgan o'rni:

ona tili va adabiy ta'limning taraqqiyot bosqichlari, fanni o'qitish metodlari va usullari tarixi;

– o'zbek tili va adabiyot o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyatining nazariy-metodik asoslari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish metodikasi **to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi:**

ona tili va adabiyot o'qitish metodikasining tarixini;

ona tili va adabiyot ta'limni tashkil etishning huquqiy-meyoriy asoslarini;

ona tili va adabiyotni o'qitishga doir tamoyillarni;

ona tili va adabiyot o'qitish vositalarini;

o'zbek tili va adabiyotni o'qitish metodlari, usullari, ularning nazariy-metodik asoslarini;

umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi ona tili va adabiyot fanlari bo'yicha yaratilgan DTS, o'quv dasturi, darsliklar, o'quv qo'llanmasining tuzilishi va mazmunini;

ona tili va adabiyot darslarini rejalashtirish va tashkil etish;

ona tili va adabiyot fani bo'yicha o'quvchilarni mustaqil tahsil olishga yo'llash;

ona tili va adabiyot fani bo'yicha o'quvchilar bilimini baholay olish;

ona tili va adabiyot darslari, shuningdek, olib boriladiga o'quv hamda tarbiyaviy ishlar bo'yicha talab qilingan barcha hujjatlarni yurita olish;

ta'lim tizimida fanning mazmuni, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan metod va usullar asosida ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini tashkillashtirishning ilmiy-metodik asoslari, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining pedagogik faoliyatini, o'quv mashg'ulotlarini, kasbga yo'naltirib muammoli o'qitishni **bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi:**

ona tili va adabiyot o'qitish metod va usullarini qo'llay olish, an'anaviy va noan'anaviy metodlar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni tanlay olishi va o'z o'rnida ijodiy qo'llay olishi, faktlarni tahlil qilishi, umumlashtirish va shu asosda xulosa chiqara olish;

ta'lim bosqichlarida ona tili va adabiyotni o'qitishning mazmuni, bu fanlarni o'qitishda uning bo'limlariga xos xususiyatlarini yaxshi bilish;

mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini bilishi; til hodisalarini hamda badiiy asarni tur va janr xususiyatiga ko'ra tahlil qila olishi; o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullarini; dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli texnologiyalarni jalb qila bilishi;

innovatsion o'quv-biluv faoliyati, maxsus kurslar, malakaviy amaliyotlarni tashkil etish va rejalashtirish;

ona tili va adabiyot o'qitishda an'anaviy va noan'anaviy dars shakllarini qo'llash, o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan dars usullaridan foydalanish;

– ona tili va adabiyot fanlarini kasbga yo'naltirib o'qitishni loyihalashtirish; innovatsion pedagogik muhitni tashkil etish vositalari bilan ishlash;

fan dasturi, ishchi dasturi asosida taqvimiy-mavzuiy rejani tayyorlash, darsliklar ustida ishlash;

talaba ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunal dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish malakalariga ega bo'lishlari;

darsdan tashqari mashg'ulotlarni ham aniq va maqsadli tashkil eta olish **ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.**

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

I modul.

(O'zbek tilini o'qitish metodikasi)

Ona tili ta'limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari.

O'zbek tili o'qitish metodikasining umumiy masalalari

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. "Ta'lim to'g'risida"gi, "Davlat tili haqida"gi, "Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunlari o'zbek tilini o'qitishda huquqiy-me'yoriy asos ekanligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi "PF-4947-sonli farmoning mazmun-mohiyati va uning ona tili ta'limi oldiga qo'ygan vazifalari xususida.

"O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanining maqsad va vazifalari. O'zbek tilini o'qitish metodikasi fanining shakllanish tarixi, rivojlanishi va hozirgi holati.

O'zbek tili o'qitish metodikasining tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari. O'zbek tilini o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar (falsafa, tilshunoslik fanlari, pedagogika, psixologiya, adabiyot, mantiq va b.) bilan aloqadorligi.

O'zbek tilini o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos tamoyillari Fan o'qituvchisiga qo'yiladigan kasbiy talablar

Ona tili ta'limida kommunikativ yondashuv. Tamoyil va amaliyot: nimani o'qitish va qanday o'qitish kerak? Ona tili o'qitishda ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning uyg'unligi tamoyili. Ilmiylik, tizimlilik va izchillik tamoyili. Nazariya va amaliyot birligi tamoyili. Onglilik, fallik va mustaqillik tamoyili. Ko'rgazmalilik tamoyili. O'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o'quv imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili. O'zbek tilini o'qitish orqali o'quvchilar tafakkurini o'stirish tamoyili. Fanlararo aloqani ta'minlash tamoyili. O'quvchilarga til hodsaarini o'rgatish tamoyili. Ona tilini o'qitishda sheva sharoiti va ta'sirini nazarda tutish tamoyili.

Umumkasbiy talablar. Ona tili o'qituvchisining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar. Ona tili o'qituvchisining burch va mas'uliyati.

Ona tili fani bo'yicha o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmuni

Ona tili fani bo'yicha o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan DTS mazmuni. Davlat ta'lim standartlarining tarkibiy qismlari. O'quv dasturi. O'quv dasturning tarkibi va mazmuni.

Ona tili ta'limi orqali o'quvchilarda lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish

Nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozish)ni shakllantirish usullari. Lingvistik kompetensiyalar (fonetik, leksil va grammatik)ni shakllantirish usullari.

Ona tili ta'limi vositalari

Ona tili darsigi o'qitishning asosiy vositasi sifatida. Na tili darslarida qo'shimcha vostalardan foydalanish: lug'atlar (imlo, izohli, sinonim, antonym, frazeologik va b.) bilan ishlash. Ona tili ta'limida axbrot-kommunikatsiya vositalari. Ilmiy va ommabop nashrlardan foydalanish.

O'zbek tilini o'qitish metodlari. Ona tili ta'limida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish. Ona tili darslarini rejalashtirish

O'zbek tilini o'qitish metodlari tasnifi. Metodlardan foydalanish jarayonida o'quvchi va o'qituvchi faoliyati. O'qitish metodlarini tanash mezonlari. Rivojlangan xorijiy davlatlar (Angliya, Germaniya, Koreya, Yaponiya) ta'lim tizimida ona tili o'qitish metodlari, tasnifi va qo'llanilishi. Ona tili darslarining tuzilishi. Yillik o'quv taqvim rejalari tuzish, unda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning aks etishi. Darsning reja-konspekti, texnologik xarita va ta'lim texnologiyalarining o'qituvchi uchun asosiy hujjat ekanligi.

O'zbek tilidan izchil kursni o'rganish metodikasi: fonetika, leksikologiya, so'z tarkibi va so'z yasalishi, morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbek tili kursining "Muqaddima" va "Izchil kurs"ga ajratilish sabablari. "Muqaddima" bo'limining mazmuni. "Muqaddima" kursini o'qitish metodikasi. "Izchil kurs"ning tarkibiy qismlari. Uni o'qitishning maqsad va vazifalari.

Fonetika bo'limini o'qitish metodikasi: Fonetika bo'limini o'qitishning maqsad va vazifalari. Fonetikani o'qitishning grafika, orfoepiya va orfografiya bo'limlari bilan uzviy bog'liqligi. Fonetik hodisalarning lingvometodik tahlili. Fonetika va grafika haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish usullari. Fonetik tahlil metodikasi.

Leksikologiyabo'limini o'qitish metodikasi: Leksikologiyabo'limini o'qitishning maqsad va vazifalari. Leksikologiya bo'limini o'qitishda o'quvchilar lisoniy tajribasi va so'z boyligi ustida ishlash imkoniyatlari. So'zni anglab qo'llashni o'rgatish. Frazeologizmlarning lingvomadaniy birlik sifatida ekanligini uqtrish yo'llari. Leksik tahlil metodikasi.

Lugʻat va uning turlarini oʻqitishning oʻziga xosligi.

Morfemika va soʻz yasalishi boʻlimlarini oʻqitish metodikasi

Morfemika boʻlimini oʻqitishning maqsad va vazifalari. Soʻzning morfem tarkibi va morfemalarning turlari ustida ishlash usullari. Soʻz yasalishi boʻlimini oʻqitishning maqsad va vazifalari. Soʻz yasalishining tuzilishi va yasalish usullari ustida ishlash metodikasi.

Grammatika (morfologiya va sintaksis) hamda punktuatsiya boʻlimlarini oʻqitish metodikasi

Morfologiya oʻqitishning maqsad va vazifalari. Morfologiyani samarali oʻrgatish tamoyllari. Soʻzlarning grammatik va lugʻaviy maʼnolari, maʼno guruhlari, soʻz tarkibi ustida ishlash usullari. Mustaqil va yordamchi soʻz turkumlarini oʻqitishning oʻziga xos xususiyatlari. Ularni zamonaviy vositalar asosida oʻqitish usullari.

Sintaksis boʻlimini oʻqitishning maqsad va vazifalari. Sintaksis boʻlimini oʻqitishda uzviylik. Soʻz birikmasi, sodda gap va qoʻshmagap sintaksisini oʻqitish metodikasi. Soʻz birikmalari tahlilida interfaol usullardan foydalanishning samaradorligi. Gap, gapning asosiy belgilari, ifoda maqsadi va tuzilishiga koʻra turlarini oʻqitishda oʻqitishning muammoli taʼlim shaklini qoʻllash. Qoʻshma gapning nazariy masalalarini oʻzlashtirish masalalari. Sintaktik tahlil metodikasi.

Puntuatsiya oʻqitishning oʻziga xosligi. Puntuatsion xatolarning koʻrinishlari. Finish belgilarining qoʻllanilishini grammatik qoidalar bilan bogʻlab oʻrgatish metodikasi.

Nutq uslublari ustida iashlash metodikasi

Soʻzlashuv uslubining oʻziga xos jihatlari. Adabiy soʻzlashuv uslubining oʻqituvchi-oʻquvchi muloqotida qatʼiy amal qilishi. Publisistik, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublarning oʻziga xos xususiyatlari ustida iashlash metodikasi.

Oʻquvchilarning ogʻzaki, yozma va bogʻlanishli nutqini oʻstirishning oʻziga xos xususiyatlari. Ona tili darslari boʻyicha nazorat shakllari va uni tashkil etish yoʻllari

Ona tilida toʻgʻri yozish, oʻqish, eshitish va gapirish koʻnikmalarini shakllantirish – ona tili taʼlimining muhim vazifasi sifatida. DTSda oʻquvchilarning gapirish va eshitish koʻnikmasiga qoʻyilgan talablar. Samarali yozishga oʻrgatish jarayonlari. Oʻquvchilarda intervyu, bahs, muvaffaqiyatli munoraza, gapirish va taqdimot qilish koʻnikmalarini shakllantirish usullari.

Ogʻzaki nazorat va uni tashkil etish usullari. Yozma nazorat ishi turlari: diktant, bayon, esse va insho. Lekshirish va bahslash mezonlari. Test nazorati.

Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi. Ona tili oʻquv xonasini jihozlash

Darsdan tashqari ishlarning mazmun-mohiyatiga koʻra turlari: 1) fakultativ; 2) sinfdan tashqari ishlar; 3) toʻgaraklar; 4) koʻrik-tanlovlar; 5) маъnavий-маърифий тадбирлар; 6) fan olimpiadalari; 7) taqdimotlar; 8) konferensiyalar. Darsdan tashqari ishlarning taʼlimida tutgan oʻrni.

Ona tili oʻquv xonasini jihozlash: oʻquv jarayoni uchun zaruriy shart-sharoitlar va ularga qoʻyiladigan talablar. Zaruriy jihozlar va koʻrgazmali materiallar.

IV. Amaliy mashgʻulotlar boʻyicha koʻrsatma va tavsiyalar

Amaliy mashgʻulotlarni tashkil etish boʻyicha kafedra professor-oʻqituvchilari tomonidan koʻrsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar darslarni alohida mashgʻulotlarni tashkil qilishda foydalaniladigan didaktik materiallarni tayyorlash, ularni rejalashtirish hamda bevosita amaliyotda qoʻllash boʻyicha amaliy topshiriqlarni bajarishadi. taʼlim bosqichlari ona tili dastur va darsliklarini chuqur oʻrganadilar, ulardagi har bir nazariy qoida va amaliy mashq hamda topshiriqlarni tahlil qiladilar. Shuningdek, amaliy mashgʻulotlarda “Oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi” fanidan mavjud darslik va oʻquv qoʻllanmalari, metodist olimlarning monografiya, qoʻllanma, maqolalarini konspektlashtirish, ular asosida dars ishlanmalarini yaratish, shuningdek, metodik jurnallardagi yangi ilmiy maqolalarga annotatsiya yozish yoʻllari bilan tanishadilar.

Amaliy mashgʻulotlarda taʼlimning turli bosqichlarida tashkil etiladigan dars turlari uchun koʻrgazmali materiallar, jadval va tarqatma materiallarning eskizlarini tayyorlash ishlari amalga oshiriladi.

Tavsiya qilinadigan amaliy mashgʻulotlar mavzulari: (Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi)

1. Ona tiliga oid umumiy oʻrta taʼlim maktablari Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturlarining tuzilishi va mazmuni
2. “Ona tili” darsliklari va oʻquv-metodik qoʻllanmalarining tuzilishi va mazmuni
3. Ona tilidan oʻquv jarayonini tashkil etish, anʼanaviy va noanʼanaviy usullarda dars ishlanmasini tayyorlash ustida ishlash
4. Ona tilidan koʻrsatmali qurol va ularga qoʻyiladigan zamonaviy-didaktik talablar

5. Fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya - bo'limlarini o'qitish metodikasi
6. Leksikologiya va morfemika bo'limlarini o'qitish metodikasi
7. Morfologiya bo'limini o'qitish metodikasi
8. Sintaksis bo'limini o'qitish metodikasi
9. Punktatsiya va nutq uslublari bo'limlarini o'qitish metodikasi

V. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar dars samaradorligini oshirishga oid ilmiy-nazariy va amaliy adabiyotlarni muhokama qilib, ilg'or metodist-o'qituvchilar tomonidan tuzilgan dars ishlanmalari va dars dars namunalari bilan tanishishadi.

Seminar mashg'ulotlarida talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, o'tilgan darslarning ishlanmalarini yaratish, mashg'ulotlarda texnik vositalarni qo'llash usullariga bag'ishlangan ishlarni ham amalga oshirish mumkin.

Tavsiya qilinadigan seminar mashg'ulotlari mavzulari: (O'zbek tilini o'qitish metodikasi)

1. Ona tili ta'limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari
2. Ona tili o'qitish metodlari. O'zbek tilidan dars tiplari
3. Ona tili ta'limida innovatsion pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiya-laridan foydalanish
4. Fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya va morfemika bo'limlarini o'qitish yuzasidan dars ishlanmalarini tayyorlash
5. Morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'qitish yuzasidan dars ishlanmalarini tayyorlash
6. Punktatsiya va nutq uslublari bo'limlarini o'qitish yuzasidan dars ishlanmalarini tayyorlash
7. Ona tili ta'limida o'quvchilar nutqini o'stirish, o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash masalalari
8. Ona tili bo'yicha sinfdan tashqari ishlar. 1 adbirlar reja-konspekti. Ona tili xonasini jihozlash.

VI. Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

Ona tili va adabiyot fanidan dastur, darslik va o'quv qo'llanmalarining bo'limlari va mavzularini o'rganish:

tegishli mavzularga tarqatma materiallar tayyorlash, testlar tuzish, internet ma'lumotlaridan foydalanish:

nazariy-metodik adabiyotlarni o'rganish, mavzularni chuqur o'zlashtirish:

til sathlari va hodisalari tahlili bilan bog'liq savol, topshiriq va mashqlar tizimini ishlab chiqish:

badiiy asar tahliliga oid qo'shimcha savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish:

talabalarning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajara olishi bilan bog'liq bo'lgan ona tili va adabiyot fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish:

alohida olingan mavzu bo'yicha dars ishlanmasi, darsning texnologik xaratasi, taqdimot slaydlarini yaratish:

ona tili va adabiyot o'qitish metodikasiga oid yangi adabiyotlarning obzorini tuzish va ularni o'rganish:

ilmiy metodik jumallarning yangi sonlaridan ona tili ta'limi va adabiy ta'limga oid maqolalarning annotatsiyasini yozish, yangi metodik adabiyotlarga taqrizlar yozish:

ta'lim metodlari oid ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq etish.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari: (O'zbek tilini o'qitish metodikasi)

1. Ona tili ta'limi jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan huquqiy-me'yoriy hujjatlar taqdimoti
2. O'zbek tili o'qitish metodikasining tarixiy shakllanishi yuzasidan referat tayyorlash
3. O'zbek tili o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi yuzasidan referat tayyorlash
4. O'zbek tilini o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar yuzasidan suhbatga tayyorlanib kelish
5. "Ona tili o'qitish metodlari" mavzularida taqdimot tayyorlash
6. "O'zbek tilidan dars tiplari" mavzularida taqdimot tayyorlash
7. Ona tilidan Davlat ta'lim standarti tahlili
8. Ona tilidan o'quv dasturi tahlili
9. Ona tili darsliklari tahlili
10. Fonetika, grafika, bo'limlarini o'qitish yuzasidan ddars ishlanmalari tayyorlash

11. Orfoepiya, orfografiya bo'limlarini o'qitish yuzasidan dars ishlanmalari tayyorlash
12. Leksikologiya bo'limini o'qitish yuzasidan dars ishlanmalari tayyorlash
13. Morfemika bo'limini o'qitish yuzasidan dars ishlanmalari tayyorlash
14. So'z yasalishi bo'limini o'qitish yuzasidan dars ishlanmalari tayyorlash
15. Morfologiya bo'limini o'qitish yuzasidan dars ishlanmalari tayyorlash
16. Sintaksis bo'limini o'qitish yuzasidan taqdimotlar tayyorlash
17. Puntuatsiya bo'limini o'qitish bo'yicha taqdimotlar tayyorlash
18. Nutq uslublari bo'limini o'qitish bo'yicha taqdimotlar tayyorlash
19. Til sathlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning nutqini o'stirish bo'yicha mashqlar tizimini yaratish
20. Ona tili o'quv xonasini jihozlash va darsdan tashqari ishlarni tashkil etish bo'yicha loyihalar tavsiya qilish

II modul.

III. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni (Adabiyot o'qitish metodikasi)

Kirish. Adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari. Adabiyot o'qitish metodikasining tarixi va shakllanish taraqqiyoti.

Adabiyot metodikasining pedagogika tizimiga mansub mustaqil fan ekanligi. Adabiyot o'qitish metodikasining metodologik asoslari. Adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari. Adabiyot o'qitishning dolzarb muammolari. Adabiyot o'qitishning maqsadi va vazifalari.

Adabiyot o'qitish metodikasi fanining o'tmishdagi buyuk allomalar, mudarris olimlarning qarashlariga tayanishi. Metodik fikrlar tarixining o'zbek xalqi va millat adabiyoti taraqqiyoti bilan bog'liqligi: fanning mustaqillik davridagi rivojlanish tamoyillari.

Ta'lim bosqichlarida adabiyot kursining mazmuni va qurilishi

Talabalarni o'quv-mehoriy hujjatlar, adabiyot fanidan DTS mazmuni, o'quv reja, dastur bilan tanishtirish. Umumtahlim maktablari uchun adabiyot darsligi mazmuni va unga qo'yiladigan metodik, didaktik talablar. Akademik

litseylar uchun adabiyot darsligi mazmuni va unga qo'yiladigan metodik, didaktik talablar.

Kasb-hunar kollejlari uchun adabiyot darsligi mazmuni va unga qo'yiladigan metodik, didaktik talablar. Talabalarda o'qitish amaliyotida dastur hamda darsliklardan foydalanishga oid ko'nikma va malakalarni, kompetensiyalarni shakllantirish.

O'zbekiston ta'lim muassasalarida amal qilinayotgan adabiyot o'qitish metodlarini rivojlangan davlatlar o'quv yurtlaridagi ilg'or metodlar bilan qiyoslab o'rganish

Adabiy ta'lim metodlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish: Adabiyot o'qitish shakllari va usullarini aniqlash, ularni ilmiy tasnif qilish. Adabiyot o'qitishning turli metodlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlari. Metodlar tasnifi.

O'zbekiston ta'lim muassasalarida amal qilinayotgan adabiyot o'qitish metodlarini rivojlangan davlatlar o'quv yurtlaridagi ilg'or metodlar bilan qiyoslab o'rganish

Adabiy asarni o'qishning shakliga va mazmuniga ko'ra turlari

Adabiy asarni o'qishning shakliga ko'ra turlari. Adabiy asarni sinfda va uyda o'qish, o'quvchilarni sinfda va uyda o'qishga qiziqtirish yo'llari, asarni ovoz chiqarib va ovoz chiqarmay o'qish, sharhlab o'qish, jo'r bo'lib o'qish, rollarga bo'lib o'qish.

Adabiy asarni o'qishning mazmuniga ko'ra turlari. Asar mazmunini o'zlashtirishda mantiqiy o'qish, mantiqiy o'qishda urg'u. Adabiy o'qish, shehrning hijolariga va turoqlariga, vazniga ehtibor berib o'qish. Ifodali o'qish. Asarni o'qish qonun qoidalariga, tinish belgilariga, ham shakliga, ham mazmuniga ehtibor berib o'qish. Badiiy o'qish. Badiiy o'qish orqali adabiyot darslarining sanhat darslariga aylanib ketishi mumkinligi, bunda tuyg'ular jo'shqinligining ustunligi

Badiiy asarni tahlil qilish, tahlil turlari

Badiiy asar tahlilining o'qituvchi faoliyatida ham, o'quvchi faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etishini izohlash; uning adabiy ta'limdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish; Tahlil turlari. Badiiy tahlil orqali o'quvchilarning estetik didlarini o'stirish; ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Ilmiy tahlil, ilmiy tahlilda tayyorgarlik, tahlil qilish va umumlashtirish bosqichlari. O'quv tahlili, o'quv tahlilining vazifalari. Muammoli tahlil, Muammoli tahlil usuli yordamida o'quvchilarda bahs madaniyatini shakllantirish. Qamrovli tahlil yozuvchi yoki shoir ijodini yaxlit holda o'rganish imkonini berishi.

Epik asarlar tahlili, uni obrazlar tizimi orqali o'rganish

Epik asarlarni o'rganish bosqichlari. Epik asarlarni tahlil qilishning o'ziga xosliklarini izohlash; Epik asarlarni o'rganishda adabiy o'qishning roli. Badiiy asarni tahlil qilishning metodik talablari. Badiiy asarni tahlil qilish bosqichlari. Badiiy asarni obrazlar tizimiga ko'ra o'rganish.

Lirik asarlarni o'rganishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish

Lirik asarlarni tahlil qilishning o'ziga xosliklari, bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlarga alohida ehtibor berish. Lirik asarlarni o'rganishda video-audio, multimedialardan foydalanish.

Dramatik asarlarni tahlil qilishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish

Dramatik asarlarning o'ziga xos xususiyatlari, dramatik asarlar tahlili, tahlil qilishning o'ziga xosliklari, unda hikoya qilishning mavjud emasligi. Dramatik asarga xos sahna, parda, ko'rinish, dekloratsiya, monolog, dialog, luqma, remarka, prolog, epilog, tugun, yechim haqida nazariy ma'lumotlarni musthklamlash. Dramatik asarlarni o'rganishda ta'limiy o'yinlar, video lavhalardan foydalanish.

Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda multimediya vositalaridan va internet ma'lumotlaridan foydalanish

Yozuvchi hayot yo'lining uning ijodiga aloqadorligi; yozuvchining individual uslubiga xos jihatlar uning shaxsiyati shakllangan muhitga ham bog'liq ekani. Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda o'lkashunoslik materiallaridan, AKI va multimediya vositalaridan foydalanish.

Adabiyot o'qitishda texnik vositalarning ahamiyati kattaligi. Darsni kompyuterlashtirish, masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish ta'limni zamonaviy tarzda yo'lga qo'yishga xizmat qilishi. Adabiyot darslarida internet ma'lumotlaridan foydalanish yo'llari, madaniyati, ma'lumotlar omboridan samarali foydalanish texnologiyasi.

Adabiyot o'qituvchisining faoliyati va unga qo'yiladigan talablar. Adabiyot o'qituvchisining darsga tayyorlanishi

Adabiyot o'qituvchisining ijtimoiy-pedagogik qiyofasi. O'qituvchi bilimi, iqtidori, shaxsiyatiga qo'yiladigan talablar. Adabiyot o'qituvchisi faoliyati qirralari. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan umumkasbiy hamda xususiy talablar.

Darslarga tayyorlanishda rejaning salmoqli ahamiyat kasb etishi, o'qituvchining me'yoriy hujjatlari. Darsga tayyorlanish bosqichlari: badiiy

materialni tanlash, saralash; o'quvchilar va o'qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini uyushtirishni rejalashtirish. Muayyan darsda o'rganiladigan materialning taqdim etilishini rejalashtirish. O'qituvchini o'z ustida ishlash, uni o'z malakasini oshirib borish zaruriyatini his qilishga o'rgatish.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini takomillashtirishning adabiy ta'lim metodikasidagi o'zak masala ekanligi. O'quvchilar og'zaki va yozma nutq malakalarini oshirishning shakl va usullari. Bayon. Matni qayta bayon qilish. To'liq bayon, qisqartirilgan bayon, kengaytirilgan bayon. Insho va uning turlari, ta'limiy insholar va sinov insholari. Ijodiy, adabiy-ijodiy va erkin insho turlari.

Sinfdan tashqari uyushtiriladigan ishlarning shakllari, turlari va amalga oshirish yo'llari, usullarini qo'llash haqida yaratilgan metodik qo'llanmalar tasnifi bo'yicha malakalarni shakllantirish. To'garak, to'garak turlari. To'garakni yuritish talablari, zarur me'yoriy hujjatlar tasnifi va izohi. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil qilish va o'qituvchi nazorati.

Adabiyotdan dars turlari. Adabiyot darslarini kuzatish va tahlil qilish

Dars turlari va ularning tasnifi. Darsliklar bilan ishlash. Mustaqil fikr yuritish darslari. Seminar darslari. Sinov darsi. Muloqot darsi. Muammoli dars. Ko'rgazma darsi. Ma'ruza darsi. Muxbirlar darsi. Ssenariy dars. Multimediya darslari.

Kasbiy mahoratni oshirishda dars kuzatish va tahlil qilishning o'rni, metodik talablari, maqsadi, vazifasi, dars tahlili turlari: ilmiy tahlil, metodik tahlil, didaktik tahlil, umumpedagogik tahlil. Tahlil qilish va baholash me'yorlari.

IV. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar darslarni, alohida mashg'ulotlarni tashkil qilishda foydalaniladigan didaktik materiallarni tayyorlash, ularni rejalashtirish hamda bevosita amaliyotda qo'llash bo'yicha amaliy topshiriqlar bajarishadi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarda «Adabiyot o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanmasi, metodist olimlarning monografiya, qo'llanma, shuningdek, maqolalarini konspektlashtirish, ular asosida dars ishlanmalarini va texnologik xaritalar tayyorlash, taqdimot slaydlari tayyorlash, shuningdek, metodik jurnallardagi maqolalarni tahlil qilish, annotatsiyalar yozish ishlarini bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlarda ta'limning turli bosqichlarida tashkil etiladigan dars turlari uchun ko'rgazmali materiallar, jadval va tarqatma materiallarning eskizlarini tayyorlash, mavzuga mos internet ma'lumotlarini tanlash kabi ishlar amalga oshiriladi.

**Tavsiya etiladigan amaliy mashg'ulot mavzulari:
(Adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha)**

1. Epik asarlarni tahlil etish metodikasi.
2. Lirik asarlarni tahlil etish metodikasi.
3. Dramatik asarlarni tahlil etish metodikasi.
4. Badiiy asarni o'rganishga tarixiy-funksional yondashuv.
5. Inshoga material to'plash, reja tuzish va yozish - muhim didaktik tadbir sifatida.
6. Erkin mavzudagi insholarning xususiyatlari
7. Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikni tashkil etish. Audiovizual va texnik vositalardan foydalanish
8. Adabiyot darslarida sinfdan tashqari mashg'ulot turlari va ularni tashkil etish.
9. Adabiyot darslarini kuzatish va tahlil qilish.

V. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar dars samaradorligini oshirishga oid ilmiy-nazariy va amaliy adabiyotlarni muhokama qilib, ilg'or metodist-o'qituvchilar tomonidan tuzilgan dars ishlanmalari va dars dars namunalarini bilan tanishishadi.

Seminar mashg'ulotlarida talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, o'tilgan darslarning ishlanmalarini yaratish, mashg'ulotlarda texnik vositalarni qo'llash usullariga bag'ishlangan ishlarni ham amalga oshirish mumkin.

**Tavsiya qilinadigan seminar mashg'ulotlari mavzulari:
(Adabiyot o'qitish metodikasi)**

1. Adabiyot o'qitish metodikasi tarixi.
2. Dars ishlanmalari, ularning mohiyati, shakl va ko'rinishlari.
3. Zamonaviy adabiyot darslariga qo'yiadigan talablar, ularni tashkil etishning shakl va usullari.
4. Adabiyot darslarida ifodali o'qitishning talab va me'yorlari.
5. Epizodlar ustida ishlashning o'ziga xosliklari.

6. Mumtoz g'azal va ruboiylar tahlili. Bunda shakl va mazmun mutanosibliigi.

7. Adabiy-nazariy tushunchalarni shakllantirishda uzviylik va uzluksizlik.

8. Adabiy ta'limda o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash.

VI. Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

Ona tili va adabiyot fanidan dastur, darslik va o'quv qo'llanmalarining bo'limlari va mavzularini o'rganish:

tegishli mavzularga tarqatma materiallar tayyorlash, testlar tuzish, internet ma'lumotlaridan foydalanish:

nazariy-metodik adabiyotlarni o'rganish, mavzularni chuqur o'zlashtirish:

til sathlari va hodisalarni tahlil bilan bog'liq savol, topshiriq va mashqlar tizimini ishlab chiqish:

badiiy asar tahliliga oid qo'shimcha savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish:

talabalarning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajara olishi bilan bog'liq bo'lgan ona tili va adabiyot fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish:

alohida olingan mavzu bo'yicha dars ishlanmasi, darsning texnologik xaratasi, taqdimot slaydlarini yaratish:

ona tili va adabiyot o'qitish metodikasiga oid yangi adabiyotlarning obzorini tuzish va ularni o'rganish;

ilmiy metodik jurnallarning yangi sonlaridan ona tili ta'limi va adabiy ta'limga oid maqolalarning annotatsiyasini yozish, yangi metodik adabiyotlarga taqrizlar yozish:

ta'lim metodlari oid ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq etish.

**VI. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:
(Adabiyot o'qitish metodikasi)**

1. Adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari
2. Adabiyot o'qitishning maqsad va vazifalari
3. Adabiyot o'qitishning buyuk allomalar, mudarrislar qarashlariga tayanishi.
4. Adabiyot o'qitishning mustaqillik davridagi rivojlanish tamoyillari
5. Adabiyot darslarida muammoli tahlili

6. Adabiyot darslarida yangi mavzuni taqdim etish usullari
7. Adabiyot o'qitishning boshqa fanlar bilan aloqasi
8. Ta'lim bosqichlarida adabiyot kursining mazmunini qurilishi.
9. Adabiyot o'qitishga doir yondashuvlar va qat'iyatlar haqida
10. Adabiy ta'lim metodlari
11. Motivatsiya tushunchasi. Intrinziq va ekstrinziq motivatsiya
12. Adabiy asarni o'rganish bosqichlari
13. Adabiy asarni o'qishning shakliga ko'ra turlari
14. Adabiy asarni o'qishning mazmuniga ko'ra turlari
15. Badiiy asarni tahlil qilish turlari.
16. Epusullar asarni tahlil qilish
17. Lirik asarlarni o'rganish. Unda video-audio materiallardan foydalanish.
18. Dramatik asarlarni o'rganishda videomateriallardan foydalanish.
19. Adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish
20. Badiiy asar tilini o'rganish.
21. Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda AKT va multimedia vositalaridan foydalanish.
22. Ta'lim bosqichlarida adabiyotni kasbga yo'naltirib o'qitish.
23. Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanish.
24. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan umumkasbiy va xususiy talablar.

VII. Malakaviy amaliyot

Talabalarning malakaviy pedagogik amaliyoti oliy ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining izchil davomi sanalib, bakalavriyat yo'nalishlari bo'yicha olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va mazkur bilim, ko'nikma va malakalarni bevosita ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash imkonini beradi.

Malakaviy (pedagogik) amaliyot ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo'llayotgan, bu borada yetarli darajada ish tajribalariga ega bo'lgan, o'quv va moddiy-texnik ta'minoti bugungi kun talablariga javob beradigan uzluksiz ta'lim tizimining umumiy o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'tkaziladi. Bunda talabalar quyidagi vazifalarni bajaradilar:

ta'lim muassasasi o'quv hujjatlari bilan tanishib chiqishi, ta'lim muassasasida olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuni bilan tanishish, fan o'qituvchilarining olib borayotgan mashg'ulotlarini kuzatish (20-25 dars), ularni tahlil qilish;

o'quv fanlari bo'yicha dars, darsdan va sinfdan tashqari ishlar (ekskursiya) mavzusi, maqsadi va vazifalarini aniqlash va talab darajasida o'tkazish yo'llarini belgilash;

o'quv fanlari bo'yicha o'tkazilgan darslarda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib namunali dars (2 ta) ishlanmasini ishlab chiqish va maktab, universitet pedagogik va ilmiy salohiyatidan foydalanish, mazkur darslarni zamon talablariga mos holda tashkil etish ko'nikmasini egallash;

bituv malakaviy ishi mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining tajriba sinov materiallarini tayyorlash va o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish.

Talabalar ta'lim muassasasida malakali o'qituvchilarining 20-25 ta darsiga (passiv amaliyot) qatnashgan holda darsni tashkil etish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Talabalar ta'lim muassasasida amaliyot rahbari nazorati ostida 8 ta sinov darajamda mavjud bo'lgan dasturga binoan ma'ruza va amaliy mashg'ulot materiallari asosida mavzu bo'yicha dars (aktiv amaliyot) olib borishi lozim. Pedagog rahbar nazorati ostida o'quvchilar orasida 2-3 ta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. To'xtiyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova F. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
2. Gulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. T.: Fan va texnologiyalar", 2012. 379 bet.
3. To'xtiyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 167 b.
4. Yo'ldosh Qozoqboy, Yo'ldosh Muhayyo, Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, Kamalak, 2016, - 462 b.
5. Хусанова К. Адабиёт маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омилли. T.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. 368 б.
6. Nurmonov A. Lingvistik tahlil metodi va metodologiyasi. Toshkent, 2010.

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". Toshkent, 2008.

8. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга кураимиз. Т.: "Ўзбекистон", 2017.
9. Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Педагогика олий ўқув юрлари учун дарслик. Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010.
10. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Toshkent: "Fan", 2006.
11. Niyozmetova R. Uzlüksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. Toshkent. Fan, 2007.
12. Неъматов Х., Гуломов А., Зиёдова Т. Ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. – Тошкент: 1997.
13. Юсупова Т. Синтаксисни морфологияни такрорлаш билан боғлаб ўрганиш методикаси (5- ва 8-синф она тили дарслари мисолида). Монография. Т.: "Fan va texnologiya", 2009.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.nutq.intal.uz
5. <http://www.twipx.com>